

UDC: 342.4+343.1(045)(575.1)

KONSTITUTSIYAVIY NORMALARNING JINOYAT QONUNCHILIGI PRINSIPLARI SIFATIDA AKS ETTIRILISHI

Toshpulatov Akrom Ikromovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi, yuridik fanlar nomzodi
ORCID: 0000-0002-3029-2767
e-mail: a.toshpulatov4@gmail.com

Annotatsiya. Davlatning yagona huquq tizimi Konstitutsiyaga asoslanadi va unga bo'ysunadi. Konstitutsiyadagi normalar boshqa huquq sohalarida ushbu sohani tartibga solish predmetidan kelib chiqqan holda o'z aksini topadi. Shu jumladan, jinoyat huquqi ham Konstitutsiya normalariga asoslanadi. Konstitutsiya jinoyat huquqi normalariga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatib, ularning shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qaratilganligini belgilaydi va shu orqali barcha jinoyat qonunchiligining ijtimoiy mazmunini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega ekanligi, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlar Konstitutsiya normalari va tamoyillariga zid bo'lmashligi kerakligi to'g'risidagi qoidalar jinoyat huquqi uchun nihoyatda muhim tartibga solish vazifasini bajaradi. Konstitutsiya davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishining xususiyatlarini belgilab beradi, jinoyat huquqi tamoyillari esa konstitutsiyaviy qoidalarga asoslanadi. Maqolada jinoyat huquqi prinsiplarining jinoyat qonunchiligida aks ettirilishi masalalari tadqiq etilgan. Xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida jinoyat qonuni prinsiplari va jinoyat javobgarlik prinsiplari tushunchalari o'rtasidagi farq tushuntirib berilgan. Muallif tomonidan jinoyat qonunchiligi prinsiplari mazmuni alohida normalarda ochib berilishi maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan. Jinoyat kodeksida prinsiplar mazmunini belgilashga oid takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, huquq nazariyasi, jinoyat-huquqiy prinsiplar, norma, qonun, qonuniylik, odillik.

ОТРАЖЕНИЕ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ КАК ПРИНЦИПОВ УГОЛОВНОГО ПРАВА

Тошпулатов Акром Икромович,
кандидат юридических наук, самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Единая правовая система государства основана на Конституции и подчиняется ей. Нормы Конституции находят свое отражение в других отраслях права, исходя из предмета регулирования этой сферы. В том числе уголовное законодательство основывается на нормах Конституции. Конституция оказывает решающее влияние на нормы уголовного права, определяет, что они направлены на защиту интересов личности, общества и государства, тем самым определяет социальное содержание всего уголовного законодательства. Положения о том, что Конституция Республики Узбекистан имеет высшую юридическую силу, законы и иные правовые акты, принимаемые в Республике Узбекистан, не должны противоречить нормам и принципам Конституции, имеют крайне важную регулятивную функцию для уголовного законодательства. В Конституции закреплены

особенности социально-экономического строя государства, а на конституционных положениях основываются принципы уголовного права. В статье исследуются вопросы отражения принципов уголовного права в Конституции. На основе опыта зарубежных стран поясняется различие понятий принципов уголовного права и принципов уголовной ответственности. Автор обосновал целесообразность раскрытия содержания принципов уголовного права в отдельных нормах Конституции. Также выдвинуты предложения по определению содержания принципов в Уголовном кодексе.

Ключевые слова: Конституция, теория права, уголовно-правовые принципы, норма, право, законность, справедливость.

REFLECTION OF CONSTITUTIONAL NORMS AS PRINCIPLES OF CRIMINAL LAW

Toshpulatov Akrom Ikromovich,
Independent Researcher
of Tashkent State University of Law,
Candidate of Law

Abstract. *The unified legal system of the state is based on the Constitution and obeys it. The norms of the Constitution are reflected in other branches of law based on the subject of regulation of this sphere, including criminal legislation, which is based on the norms of the Constitution. The Constitution has a decisive influence on the norms of criminal law, determines that they are aimed at protecting the interests of the individual, society and the state, thereby determining the social content of all criminal legislation. The provisions that the Constitution of the Republic of Uzbekistan has the highest legal force and that laws and other legal acts adopted in the Republic of Uzbekistan should not contradict the norms and principles of the Constitution have an extremely important regulatory function for criminal law. The constitution fixes the features of the socio-economic structure of the state, and the principles of criminal law are based on constitutional provisions. The article examines the issues of reflecting the principles of criminal law in criminal legislation. Based on the experience of foreign countries, the difference between the concepts of the principles of criminal law and the principles of criminal liability is explained. The author substantiated the expediency of disclosing the content of the principles of criminal law in separate norms. Proposals were put forward to determine the content of the principles in the Criminal Code.*

Keywords: *Constitution, theory of law, criminal law principles, norm, law, legality, justice.*

Kirish

Huquq nazariyasida huquq prinsiplarini umumhuquqiy, sohalararo hamda sohaviy turlarga bo'lish haqidagi qarashlar mavjud.

Umumhuquqiy prinsiplar deganda, huquqning barcha sohaları uchun qo'llash mumkin bo'ladigan prinsiplar tushuniladi. Olimlar bunday prinsiplar sifatida qonuniylik, fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi, insonparvarlik, odillik, demokratizm, huquq va majburiyatlarning yagonaligi, ijtimoiy erkinlik, ishontirish va majburlashning muvofiqligi hamda boshqa prinsiplarni ko'rsatishgan.

Umumhuquqiy prinsiplar sifatida odatda Konstitutsiyada o'z aksini topgan prinsiplar tushuniladi. Chunki davlatning yagona huquq tizimi Konstitutsiyaga asoslanadi va unga bo'ysunadi. Konstitutsiyadagi normalar boshqa huquq sohalarida ushbu sohani tartibga solish predmetidan kelib chiqqan holda o'z aksini topadi. Shu jumladan, jinoyat huquqi ham Konstitutsiya normalariga asoslanadi.

Sohalararo huquqiy prinsiplarga bir vaqtning o'zida bir nechta huquq sohalarida qo'llanadigan prinsiplar kiritiladi. Masalan, sudda ishlarning oshkora ko'rilishi hamda sudda ishlarni yuritishda tortishuv prinsi-

pi jinoyat-protsessual (Jinoyat-protsessual kodeksining 19- va 25-moddalari), fuqarolik-protsessual (Fuqarolik-protsessual kodeksining 10- va 12-moddalari), ma'muriy sud ishlarini yuritish (Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 11- va 13-moddalari)ga oid qonunchilikda mavjud.

Sohaviy prinsiplar deganda, aynan bir huquq sohasi uchun qo'llanadigan prinsiplar tushuniladi. Masalan, mehnat qilish huquqi mehnat huquqining, ayb uchun javobgarlik jinoyat huquqining o'ziga xos prinsiplari hisoblanadi.

Huquq prinsiplarini qonunchilikda aks ettirish, ya'ni qonun normasida qanday ifodalashga oid turlicha yondashuvlar mavjud. Mamlakatimiz qonunchiligini tahlil qilish turli huquq sohaslarida prinsiplarni qonunda aks ettirishga oid bir qancha tajriba borligini ko'rsatdi. Shu bilan birgalikda, ilmiy adabiyotlarda huquq prinsiplarini qonunda aks ettirish masalasida izlanishlar yetarli emasligi kuzatilmog'da. Bu esa huquq prinsiplarini qonunda aks ettirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Material va metodlar

Tadqiqot maqsadi jinoyat huquqi prinsiplarining jinoyat qonunida qanday aks ettirilganligi holatini tahlil qilish, bu borada xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish asosida ilmiy xulosalarni asoslash va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari sifatida qiyosiy-huquqiy, empirik tadqiqot, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Masalaning tavsifi. Jamiyatda huquqbuzarliklar, shu jumladan, jinoyatlarga qarshi kurashishning asosiy maqsadi qonun ustuvorligini ta'minlash orqali ijtimoiy adolatni qaror toptirishdir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "adolat va qonun ustuvorligi – xalqchil davlat qurish, inson qadr-qimmatini ta'minlashning eng asosiy va zarur shartidir" [1].

Konstitutsiya jinoyat huquqi normalariga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatib, ularning shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qaratilganligini belgilaydi va shu orqali barcha jinoyat qonunchiligining ijtimoiy mazmunini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega ekanligi, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlar Konstitutsiya normalari va tamoyillariga zid bo'lmasligi kerakligi to'g'risidagi qoidalar jinoyat huquqi uchun nihoyatda muhim tartibga solish vazifasini bajaradi. Konstitutsiya davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishining xususiyatlarini belgilab beradi, jinoyat huquqi prinsiplari esa konstitutsiyaviy qoidalarga asoslanadi.

"Har qanday huquq sohasining siyosati u jinoyat, ma'muriy yoki fuqarolik huquqi siyosati bo'ladimi, avvalambor, bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatning bir tarmog'i hisoblanadi. Huquq siyosati ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga imkon yaratish, mustahkamlash va ularga to'siq bo'ladigan vaziyatlarni bartaraf etishning huquqiy asoslarini ishlab chiqadi" [2].

Albatta, huquqiy siyosat mazmuni, uning jinoyat qonunchiligi yo'nalishini belgilovchi asoslari prinsiplarda namoyon bo'ladi. Prinsiplar mazmuni tegishli huquq sohasining asosiy yo'nalishi, rivojlanishi istiqbollarini o'zida aks ettiradi.

Adabiyotlarda huquq prinsiplari tushunchasi mazmuniga oid nazariy qarashlar keng tadqiq etilgan masalalardan hisoblanadi. Umumiy ma'noda olganda, "huquqning mazmuni, uning mohiyati va jamiyatdagi vazifasini ta'riflab beruvchi asosiy g'oyalar huquq prinsiplaridir" [3].

Huquqiy siyosat mazmuni, uning jinoyat qonunchiligi yo'nalishini belgilovchi huquq prinsiplarini o'z mazmuniga ko'ra deyarli barcha huquq sohalari uchun qo'llash mumkin bo'lsa-da, har bir huquq sohasi olimlari tomonidan ularni huquq sohalari bo'yicha

turlarga ajratish va faqat shu sohaga tegishli prinsip deb hisoblash holatlari ko'p uchraydi.

A.V. Sumachevning fikricha, huquq prinsiplarini bunday turlarga bo'lish maqsadga muvofiq emas. Sohaviy huquq prinsiplari, aslida, ularning bir qismi hisoblansa-da, umumhuquqiy prinsiplar mazmunidan ajratib olinib, unga "sohaviy" tus beriladi. Uning fikricha, huquq prinsiplarini bunday turlarga bo'lish aniq ifodalangan amaliy ahamiyatga ega emas. Shuningdek, ilmiy muammolarni o'ta nazariylashtirish har doim ham o'zini oqlamaydi. Ikkinchidan, faqat jinoyat huquqiga tegishli bo'lgan prinsiplarni aniqlash va ularni ajratib ko'rsatish emas, balki jinoyat huquqi tabiatini ochib beradigan prinsiplar mohiyatini ko'rsatishga e'tibor qaratish muhim. Uchinchidan, faqat jinoyat huquqiga oid deb hisoblanadigan prinsiplar, aslida, umumhuquqiy prinsiplarning jinoyat huquqiga oid xususiy holatlar bo'yicha aks ettirilishi hisoblanadi [4].

A.V. Sumachevning fikrini qo'llab-quvvatlagan holda huquq prinsiplarini sohalar bo'yicha bo'lishga kirishib ketish orqali huquq sohalarining bir-biriga bog'liqligi, ular bir-birini to'ldirib turgan holda mavjud ekanligini unutib qo'ymaslik kerak, deb hisoblaymiz.

Huquq prinsiplarining huquq sohalarini tartibga solgan qonunchilikda aks ettirilishi masalasi huquqshunoslar tomonidan doimiy bahs-munozaraga sabab bo'lgan.

Huquq prinsiplarining qonunchilikda aks ettirilishi prinsiplarning tartibga solish ahamiyatini oshirib, shaxslarning huquqiy ongi va madaniyatiga ta'sir ko'rsatadi hamda huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti rivojlanishini belgilab beradi.

K.P. Urjinskiyning fikricha, "prinsiplarning qonun matnida aks ettirilishi ularni aholi uchun yanada tushunarliroq qiladi va foydalanish imkonini oshiradi, ularning turlicha talqin qilinishining oldini oladi, soha va institutlarning chegaralari va rivojlanish tenden-

siyalarini aniqlash imkonini beradi, ularning vazifalarini aniqlaydi, yangi normalarni ishlab chiqish, qonunchilikni tizimlashtirishga ko'maklashadi" [5].

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi-ni shakllantirishda qonun chiqaruvchi jinoyat huquqi prinsiplarini to'g'ridan-to'g'ri qonunda aks ettirish yo'lidan ketdi. Jinoyat kodeksining 3-moddasida prinsiplar sanab o'tilib, 4–10-moddalarida esa ularning har birining mazmuni ochib berildi.

Amaldagi JKda quyidagi prinsiplar mustahkamlangan:

- qonuniylik prinsipi (4-modda);
- fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi prinsipi (5-modda);
- demokratizm prinsipi (6-modda);
- insonparvarlik prinsipi (7-modda);
- odillik prinsipi (8-modda);
- ayb uchun javobgarlik prinsipi (9-modda);
- javobgarlikning muqarrarligi prinsipi (10-modda).

Mamlakatimiz qonunchiligiga qaraydigan bo'lsak, prinsiplarni qonunda aks ettirish bo'yicha turli yondashuvlarni ko'rishimiz mumkin. Jumladan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, Jinoyat kodeksida har bir prinsipning mazmuni alohida moddalarda ochib berilgan bo'lsa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda esa faqat prinsiplar nomi ko'rsatilib, ularning mazmuni alohida moddalarda ochib berilmagan, Fuqarolik kodeksida esa prinsiplar ko'rsatilmagan.

Jinoyat qonunida qonun chiqaruvchi prinsiplarni to'g'ridan-to'g'ri qonun normalarida aks ettirish va ularning mazmunini ochib berish yo'lidan ketganligi jinoyat qonuni normalarining ham qonun chiqaruvchi, ham huquqni qo'llovchi organlar tomonidan bajarilishi jarayonini osonlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki fuqarolik muomalasi ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar erkinligiga asoslangan fuqarolik qonunchiligidan farqli o'laroq, jinoyat qonunchiligi ko'proq taqiqlash mazmuniga ega norma-

lardan tashkil topgan. Shu sababdan ham jinoyat qonunchiligida prinsiplar mohiyatini ochib berishni zarur deb hisoblaymiz.

Shu bilan birgalikda, Jinoyat kodeksida prinsiplar mazmuni ochib berilishi ushbu masala bo'yicha barcha bahsli masalalarga yechim bo'ldi, deb hisoblash imkonini bermaydi.

Xorijiy tajriba. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari uchun Namunaviy jinoyat kodeksi (Modelniy ugovniiy kodeks)da prinsiplar qanday belgilanganligini ko'rib chiqamiz. Namunaviy jinoyat kodeksi 1996-yil 17-fevralda Sankt-Peterburg shahrida MDH Parlamentlararo Assambleyasi qarori bilan qabul qilingan [6].

Ushbu Namunaviy jinoyat kodeksining 2-moddasida jinoyat qonunchiligi belgilangan vazifalarga erishish uchun jinoyat javobgarlik asoslari va prinsiplari belgilangan. 3-moddasida jinoyat javobgarlik asoslari tushunchasi ochib berilgan. 4-moddasida esa jinoyat kodeksi va jinoyat javobgarlik prinsiplari belgilangan. Bu yerda biz jinoyat kodeksi va jinoyat javobgarlik prinsiplari deb nomlanganligiga ahamiyat berishimiz kerak. Ya'ni jinoyat qonuni prinsiplari, o'z navbatida, jinoyat javobgarlik prinsiplari ham hisoblanmoqda.

Namunaviy jinoyat kodeksining 3-moddasiga muvofiq, jinoyat qonuni va jinoyat javobgarlik prinsiplari sifatida qonuniylik, qonun oldida tenglik, javobgarlikning muqarrarligi, ayb uchun shaxsan javobgarlik, odillik, insonparvarlik belgilangan. Ushbu prinsiplarning aksariyati MDHga a'zo davlatlar jinoyat kodekslarida o'z aksini topgan.

Rossiya jinoyat kodeksining 2-moddasi ikkinchi qismida jinoyat javobgarlikning prinsiplari haqida so'z yuritilgan bo'lib, 3-8-moddalarida qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, ayb, odillik, insonparvarlik prinsiplari mazmuni ochib berilgan [7].

Rossiya Jinoyat kodeksida prinsiplar nomi alohida moddada sanab o'tilmaganligi, 2-moddada jinoyat javobgarlik prinsiplari

ko'rsatilganligi bois biz bu yerda jinoyat qonuni emas, balki jinoyat javobgarlik prinsiplari haqida so'z yuritilgan, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

E'tiborli tomoni shundaki, mamlakatimiz jinoyat qonunidan farqli ravishda, Rossiya Jinoyat kodeksida demokratizm, javobgarlikning muqarrarligi kabi prinsiplar mavjud emas.

Belarus Jinoyat kodeksining 3-moddasi jinoyat qonuni va jinoyat javobgarlik prinsiplari deb nomlanadi. Ushbu moddaning birinchi qismida Belarus Respublikasida jinoyat javobgarlik qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, javobgarlikning muqarrarligi, ayb uchun shaxsan javobgarlik, odillik va insonparvarlik prinsiplariga asoslanishi belgilangan [8].

Bundan ko'rinib turibdiki, bu yerda aynan jinoyat javobgarlik prinsiplari haqida so'z yuritilmoqda. Ushbu kodeksda prinsiplar mazmuni alohida moddalarda ochib berilmagan, balki ushbu 3-moddaning o'zida prinsiplar tavsifi belgilangan.

Armaniston Jinoyat kodeksining 2-moddasi ikkinchi qismida jinoyat qonunchiligi prinsiplari haqida so'z yuritilgan. 4-moddasi esa jinoyat qonunchiligi prinsiplari deb nomlanib, unda qonuniylik, qonun oldida tenglik, javobgarlikning muqarrarligi, shaxsiy javobgarlik, ayb uchun javobgarlik, odillik va javobgarlikning individualligi, insonparvarlik prinsiplari ko'rsatilgan [9].

Uning o'ziga xos xususiyati sifatida ayb uchun javobgarlik prinsipining ikkiga bo'linganligi, ya'ni shaxsiy javobgarlik va ayb uchun javobgarlik prinsiplari mavjudligi, javobgarlikning muqarrarligi ham prinsip sifatida belgilanganligida ifodalanadi. Shaxsiy javobgarlik prinsipi shaxs faqat o'zi sodir etgan jinoyati uchun javobgar bo'lishi tarzida bayon etilgan. Ayb uchun javobgarlik prinsipi esa shaxs ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik va ijtimoiy xavfli oqibatlar uchun uning aybi vakolatli sud tomonidan aniqlanganidagina javobgar bo'lishi tarzida

ifodalangan. 10-moddada odillik va jazoning individualligi bir prinsip sifatida belgilangan bo'lib, mazmunan O'zR Jinoyat kodeksining 7–8-moddalaridagi insonparvarlik va odillik prinsiplari qoidalarini o'zida aks ettirgan.

Ozarbayjon Jinoyat kodeksining 2-moddasida jinoiy javobgarlikning prinsiplari haqida so'z boradi. 4-moddasi Jinoyat kodeksi va jinoiy javobgarlikning prinsiplari deb nomlanib, unda qonuniylik, qonun oldida tenglik, ayb uchun javobgarlik, odillik, insonparvarlik prinsiplari sanab o'tilgan. 6-moddada belgilangan qonun oldida tenglik prinsipida o'ziga xos yondashuvni kuzatish mumkin. Ushbu moddaning ikkinchi qismida (6.2-qism) hech kim 6.1-qismda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha (jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi bo'yicha) jinoiy javobgarlikka tortilishi, jazolanishi yoki javobgarlikdan, jazodan ozod qilinishi mumkin emasligi belgilangan [10].

Qozog'iston Jinoyat kodeksi prinsiplar masalasida boshqa MDH davlatlaridan keskin farq qiladi. Unda jinoyat kodeksi yoki jinoiy javobgarlik prinsiplari umuman aks ettirilmagan. Qozog'iston Jinoyat kodeksining 1-moddasi 2-qismida ushbu kodeks Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalariga asoslanishi belgilangan [11].

Qozog'iston Jinoyat kodeksi 2014-yilda qabul qilinganligi va 2015-yil 1-yanvardan kuchga kirganligi tufayli u MDH davlatlari Jinoyat kodekslaridan birmuncha farq qiladi, ayniqsa, prinsiplar masalasida rivojlangan G'arb davlatlari tajribasiga tayanilganligini ko'rishimiz mumkin.

Albatta, bu holat Qozog'iston Jinoyat kodeksida umuman prinsiplar mavjud emas ekan, degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Kodeksning 1-moddasida belgilangan umume'tirof etilgan prinsiplar va normalarni bevosita jinoyat huquqiga taalluqlilari sifatida aybsizlik prezumpsiyasi, odillik, individual jinoiy javobgarlik, qonunning orqaga qay-

tishini taqiqlash, bitta jinoyat uchun ikki marta ta'qib qilishning taqiqlanishi, aybsiz holda zarar yetkazganlik uchun javobgarlikning taqiqlanishi kabi prinsiplarni ko'rsatishimiz mumkin.

Ba'zi olimlar prinsiplarni qonunda aks ettirish shakli ularning yuridik kuchiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq, degan fikrlarni bildirishgan. Jumladan, V.N. Ronjin "qonun normalarida aks ettirilgan prinsiplar yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'ladi va majburiy rahbariy ko'rsatmalar sifatida ifodalanadi. Qonun preambulasi yoki uning qoidalarida aks ettirilgan prinsiplar esa normalarning eng umumiy chegaralarini belgilaydi. Qonunda to'g'ridan to'g'ri aks ettirilmagan prinsiplar yuqori yuridik kuchga ega bo'lmaydi, ular unutilishi, inkor qilinishi mumkin", deb hisoblaydi [12].

Albatta, ushbu fikrga to'la qo'shilib bo'lmaydi. Prinsiplarning qonun normasida qanday aks ettirilganligi uning prinsip sifatida tan olinishi yoki olinmasligi uchun asos bo'lib xizmat qilmaydi. Shu bilan birgalikda, ko'proq taqiq xususiyatiga ega bo'lgan, shaxsning huquq va erkinliklarini jiddiy cheklash xususiyatiga ega bo'lgan huquq sohalarida prinsiplarning mazmuni qonun normasida ochib berilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

I.V. Korshikovning fikricha, "amaldagi jinoyat qonunchiligidagi prinsiplarni Jinoyat kodeksining preambulasida (muqaddima) aks ettirish lozim. Shunda biz prinsiplarning boshqa normalarga nisbatan asos bo'luvchi mavqeyini mustahkamlagan, prinsipni bevosita amal qiladigan norma sifatida tushunishdagi tushunmovchiliklarni bartaraf qilgan bo'lar edik. Shu bilan birgalikda, qonun chiqaruvchi, huquqni qo'llovchi va huquqni ijro etuvchiga huquq normalarini to'g'ri qo'llash uchun yo'nalish bergan bo'lar edik" [13].

Ushbu fikr Rossiya jinoyat qonunchiligiga asoslanib berilgan bo'lsa-da, uni jinoyat qonunchiligida qo'llab bo'lmasligini quyidagilar bilan asoslashga harakat qilamiz:

birinchidan, mamlakatimiz amaldagi jinoyat qonunida preambula mavjud emas, umuman olganda, barcha qonunlarda ham preambula mavjud emas;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risidagi qonunning 19-moddasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlari hamda qonunlariga o'zgartirishlar, qo'shimchalar va tuzatishlar kiritish to'g'risidagi qonun loyihalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunlari yoki ularning ayrim normalarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risidagi qonun loyihalari, qoida tariqasida, ularning qabul qilinishi zaruriyati, sabablari va maqsadlariga oid tushuntirishni qamrab olgan, shuningdek, ularning mohiyati va ahamiyatini ochib beruvchi muqaddimaga ega bo'lishi, huquqiy normalar muqaddimaga kiritilmasligi belgilangan.

Demak, muqaddimaga huquqiy norma kiritilmas ekan, unda huquqni qo'llovchi organlar, jinoyat ishlari bilan bog'liq holda surishtiruv va dastlabki tergov olib boradigan organlar, sud o'z qarorlarida bunday muqaddimaga murojaat qila olmasligi yuzaga keladi. Biz o'rganib chiqqan jinoyat ishlari bo'yicha 1000 dan ortiq sud hujjatlari (ajrim va hukmlar)ning 20 %dan ortig'ida sudlar tomonidan o'z qarorini asoslantirishda bevosita Jinoyat kodeksining prinsiplari belgilangan normalarga murojaat qilganligini kuzatdik. Agar prinsiplar aniq bir normada emas, balki muqaddimada bo'lganida, sudlarning unga murojaat qilish imkoni bo'lmas edi. Shu sababdan ham qonunlarda prinsiplar muqaddimada emas, balki aniq normalarda aks etishi kerak, deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, fikrimiz isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ham keltirishimiz mumkin. Konstitutsiyada muqaddima mavjud bo'lsa-da, unda alohida bitta bo'lim (1-bo'lim) asosiy prinsiplarga

bag'ishlangan. Bu esa muqaddimadan ko'ra, aniq huquqiy normaning amalda qo'llanishi imkoniyati yuqoriligidan dalolat beradi.

Shu bilan birgalikda, prinsiplarning muqaddimada emas, balki huquqiy normada aks etishi uning ahamiyatini kamaytirib, boshqa normalar bilan bir xil bo'lib qolishi haqidagi fikr ham to'g'ri emasligi, huquqiy normada ifodalangan prinsiplar imperativ xususiyatga egaligi va unda belgilangan talablarning bajarilishi majburiylikini ta'kidlaymiz.

D. Filimonov prinsiplar mazmuni ochib berilishi kerak, buni faqat ularni Jinoyat kodeksi matnida belgilash orqaligina amalga oshirish mumkin, deb hisoblaydi [14].

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat huquqi darsligi mualliflari esa prinsiplarni Jinoyat kodeksi normasi sifatida belgilash ushbu prinsiplarning mazmuni soddalashtirilishiga (norma sifatida bayon etish uchun) olib keldi, deb ko'rsatishgan [15].

V.V. Maltsev prinsiplarni Jinoyat kodeksida faqat sanab o'tib, ularning mazmunini alohida normalarda ochib bermaslik kerakligini bildirgan [16]. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda prinsiplar aynan shu taxlitda belgilangan.

Mamlakatimizda huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi, huquqni qo'llash amaliyotiga oid o'ziga xosliklar, sud hujjatlari asoslantirishning to'liqligini ta'minlash, qonun normalarini turlicha talqin qilishning oldini olish maqsadida ba'zi bir kamchiliklar mavjud bo'lsa-da, prinsiplar mazmuni jinoyat qonuni normalarida ochib berilishi kerak, deb hisoblaymiz.

Fikrimizcha, "jinoyat huquqi prinsiplari" va "jinoyat qonuni prinsiplari" bir xil tushuncha emas. Jinoyat huquqi prinsiplari keng tushuncha bo'lib, uning mazmuni nafaqat jinoyat qonunida aks ettirilgan prinsiplar, balki jinoyat qonunida bevosita aks ettirilmagan, ammo mazmuni va mohiyatidan kelib chiqadigan prinsiplarni ham qamrab oladi (ma-

salan, kriminalizatsiya, dekriminalizatsiya va h.k.). Jinoyat qonuni prinsiplari esa Jinoyat kodeksi normalarida prinsip sifatida belgilangan qoidalardir.

Jinoyat huquqi prinsiplari jinoyat qonunida uch xilda o'z aksini topgan: 1) prinsiplar mazmuni ochib berilgan maxsus normalarda (Jinoyat kodeksining 3–10-moddalari); 2) Jinoyat kodeksining umumiy qismi normalarida aks ettirilgan tushuncha va institutlarda; 3) maxsus qism normalarida.

Xulosalar

Amaldagi Jinoyat kodeksida jinoyat huquqi prinsiplarini belgilashda nomuvofiqlik borligini ham ko'rsatib o'tish lozim. Jumladan, JKning 2-moddasida kodeksning vazifalari belgilangan bo'lib, ushbu moddaning ikkinchi qismida "Ana shu vazifalarni amalga oshirish uchun kodeks javobgarlikning asoslari va prinsiplari, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligini aniqlaydi, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari belgilaydi" deb ko'rsatilgan.

Shu yerda e'tibor qaratish lozim bo'lgan holat mavjud, ya'ni Jinoyat kodeksining

2-moddasida javobgarlik asoslari va uning prinsiplari haqida so'z yuritilmoqda. 3–10-moddalarda esa kodeksning prinsiplari haqida so'z ketgan. Bu esa amaldagi jinoyat qonunida ikki xil prinsip mavjud ekan, degan xulosaga olib kelishi mumkin.

Fikrimizcha, bu yerda qonun normasini shakllantirishda chalkashlik yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Chunki javobgarlikning prinsiplari va jinoyat kodeksi prinsiplari umuman boshqa masalalar hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi Jinoyat kodeksining 2-moddasida aynan jinoyat qonuni prinsiplarini nazarda tutgan, ammo normani shakllantirishda chalkashlik yuzaga kelgan.

Ushbu tushunmovchilikka barham berish uchun Jinoyat kodeksining 2-moddasi ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etishni taklif qilamiz:

"Ana shu vazifalarni amalga oshirish uchun Kodeks jinoyat qonunchiligi prinsiplari, jinoiy javobgarlik asoslari, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligini aniqlaydi, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari belgilaydi".

REFERENCES

1. We will resolutely continue the path of democratic reforms based on the development strategy of the new Uzbekistan. The speech of the newly elected President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the joint meeting of the chambers of the Oliy Majlis dedicated to the ceremonial inauguration. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/4743/>.

2. Matmurodov B.J. 2018–2021-yillarda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi va amalga oshirilishi – zamon talabi [Adoption and implementation of the concept of development of criminal and criminal-procedural legislation in 2018–2021 – need of the hour]. Liberalization of criminal and criminal-procedural legislation – guarantee of human rights and freedoms. Proceedings of the Republican scientific and practical conference. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2018, p. 5.

3. Xo'jaqulov S.B., G'ofurov Sh.R. Huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasida profilaktikaning prinsiplariga amal qilishning o'ziga xos jihatlari [Peculiarities of adherence to the principles of prevention in the general prevention of crimes]. Reforms in the field of prevention of crimes and the fight against crime: problems and solutions. Proceedings of the Republic scientific-practical

conference. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2018, p. 234.

4. Sumachev A.V. O prinsipakh ugolovnogogo prava [On the principles of criminal law]. *Yuridicheskaya nauka i pravookhranitel'naya praktika – Legal Science and Law Enforcement Practice*, 2017, no. 4 (42), pp. 8–15.

5. Urzhinskiy K.P. K voprosu o prinsipakh pravovogo regulirovaniya obshchestvennykh otnosheniy [To the question of the principles of legal regulation of public relations]. *Pravovedeniye – Jurisprudence*, 2007, no. 3, p. 124.

6. Model Criminal Code for the member states of the Commonwealth of Independent States. recommendatory legislation. Available at: <https://www.icrc.org/ru/doc/assets/files/other/crim.pdf/>.

7. Criminal Code of the Russian Federation. Available at: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/.

8. Criminal Code of the Republic of Belarus. Available at: https://kodeksy-by.com/ugolovnyj_kodeks_rb.htm/.

9. Criminal Code of the Republic of Armenia. Available at: <http://www.parliament.am/legislation.php?ID=1349&lang=rus&sel=show/>.

10. Criminal Code of the Republic of Azerbaijan. Available at: https://continent-online.com/Document/?doc_id=30420353/.

11. Criminal Code of the Republic of Kazakhstan. Available at: https://online.zakon.kz/document/?doc_id=31575252&pos=5;-106#pos=5;-106/.

12. Ronzhin V.N. O ponyatii i sisteme principov ugolovnogogo prava [On the concept and system of principles of criminal law]. *Bulletin of Moscow State University*, 2005, no. 2, pp. 34–39.

13. Korshikov I.V. Prinsip gumanizma v Rossiyskoy Federatsii [The principle of humanism in the Russian Federation]. Saratov, 2007, p. 227.

14. Filimonov V.D. Prinsipy ugolovnogogo prava [Principles of criminal law]. Moscow, Yurist Publ., 2007, p. 234.

15. Kuznetsova N.F., Tyajkova I.M. Kurs ugolovnogogo prava [Criminal law course]. A common part. Doctrine of Crime. Moscow, Zertsalo-M Publ., 2002, p. 168.

16. Mal'tsev V.V. Prinsipy ugolovnogogo prava i ikh realizatsiya v pravoprimeritel'noy deyatelnosti [Principles of criminal law and their implementation in law enforcement activities]. St. Petersburg, 2004, p. 252.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

MAXSUS SON

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.b.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Y. Mahmudov, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 30.12.2022-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 15,11 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 179.
TDYU tipografiyasida chop etildi.